

INFORMATSION TAHDIDLARDAN HIMROYALASH - DAVR TALABI

Abdushukurova Aziza, Mamatova Maftuna

*O'zbekiston Respublikasi IIV Jizzax akademik litseyi tarix fani
o'qituvchilari*

Annotatsiya. Mazkur maqolada axborotlarning zamonaviy turlari, uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni, globallashuv sharoitida yoshlarning axborot xurujlari ta'siriga tushib qolish holatlari haqida fikr-mulohaza yuritiladi. Unda shuningdek, mualliflarning milliy qadriyatlarga va tarbiyaga axborot xurujining salbiy ta'siri xususidagi tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: axborot, Internet, geosiyosat, tinchlik, psixologik qurol, mafkura, yosh avlod, immunitet, Prezident, mahalla instituti.

Bugungi globallashuv sharoitida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning shiddat bilan rivojlanishi, kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining taraqqiyoti g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi hamda ushbu sohadagi uslub va vositalarning takomillashuviga sabab bo'lmoqda. Mafkuradan kurash vositasi sifatida foydalanish umumbashariy tus olmoqda.

Turli geosiyosiy kuch markazlari o'zlarining geostrategik maqsadlari yo'lida "nishon" sifatida tanlagan mamlakatni qaram qilib olish uchun avvalo mazkur xalqni qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinmoqdalar [1:6].

O'zbekiston mustaqillikka erishgach asosiy strategik vazifalar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik, huquq-tartibot, davlatimiz chegaralari daxlsizligi, jamiyatda qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklari hamda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlashga yo'naltirilmoqda va maqsadli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Aytish joizki, bugungi kunda O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Fuqarolar yurtimizda kechayotgan islohotlarni ro‘yobga chiqarishning faol ishtirokchilariga aylanmoqda. O‘zbekistonda olib borilayotgan chuqur islohotlar xalqaro ekspertlar tomonidan “shiddatli mo‘jizaviy holat” [3:59] deb baholanmoqda. Iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va manaviy sohalarda tub islohotlar amalga oshirilayotgani respublikamizning buyuk marralar sari dadil odimlayotganligining yaqqol isbotidir.

Yangilanayotgan O‘zbekistonimizda iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma‘naviy sohalarda tub islohotlar amalga oshirilayotgani respublikamizning buyuk marralar sari dadil odimlayotganligining yaqqol isbotidir. Barcha hududlarimizda yoshlarimiz o‘zaro hamjihatlikda, bir-birlariga faqat va faqat yaxshiliklar tilab, ezgulik va yaratuvchilik ishqisi bilan tinch-totuv hayot kechirayotganliklari, mustaqil davlatimizning bugungi kundagi erishgan eng katta yutug‘i, qo‘lga kiritgan eng katta boyligidir. Biroq, bugun yosh avlodni turli tahdidlardan asrash vazifasi dolzarbligicha qolmoqda.

Hech kimga sir emas, XXI asrda texnika-texnologiyalar, Internet, tez suratlardagi axborotlar almashinuvi tizimi butun jahon taraqqiyoti sivilizatsiyasining ajralmas quvvat manbayiga aylandi [2:120]. Yangi O‘zbekistonda yashayotgan yoshlarni har tomonlama bilimli, yuqori kasbiy mahoratga ega, bir nechta chet tillarni mukammal o‘zlashtirgan, intellektual salohiyatli barkamol avlod qilib tarbiyalash borasida ta‘limning barcha bosqichlariga eng zamonaviy axborot texnologiyalari tatbiq etildi. Shuningdek, axborot texnologiyalarining yetuk mutaxassislarini tayyorlovchi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalari barpo etildi, Internetdan samarali foydalanish mexanizmlari yaratildi. Natijada Internet barcha yoshdagি insonlar uchun qulay axborot almashinuvi vositasiga aylanib ulgurdi. Mamlakatimizda so‘nggi o‘n yil ichida Internetdan foydalanuvchilar soni o‘n barobarga oshdi [2:120].

Albatta, axborot texnologiyalari insoniyat olamida katta imkoniyatlarni yaratish bilan birga, kuchli mafkuraviy ta‘sir ko‘rsatish vositasi sifatida jiddiy muammolarni ham keltirib chiqarayotgani hech kimga sir emas. Barchamizga

ma'lum, uy ro'zg'orida foydalaniladigan oddiyagini pichoq oshpaz qo'lida mehnat quroli bo'lsa, u qotil qo'lida o'lim quroliga aylanadi.

Endi e'tiborimizni muhim faktlarga qaratsak. Olimlarimiz axborot izlovchilarning 3 toifasini alohida ajratib ko'rsatishadi:

- muhim ma'lumotga, axborotga ega bo'lish - hokimiyatga ega bo'lishdir;
- olingan axbortlarni kerakligini keraksizidan ajratish - yanada ko'proq hokimiyatga ega bo'lishdir;
- kerakli axborotlarni o'z resurslariga asoslanib tarqatish yoki ushlab turish - ikki karra hokimiyatga ega bo'lishni anglatadi [2:120].

Darhaqiqat, yosh avlod ongu shuuriga ma'naviyat, ma'rifat yog'dularini singdirish uning kamolotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki, ma'rifat g'oyaga aylangandagina u ma'naviyatni uyg'otadigan va real kuchga aylantiradigan omil sifatida namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda dunyodagi turli mafkuraviy markazlar chetdan turib "mutlaq erkinlik", "chegarasiz erkinlik", "erkin axloq" degan soxta g'oyalarni yoshlar ongiga singdirishga zo'r berib urinmoqda [8:104]. Bu yo'lda ular "ommaviy madaniyat" namunalaridan, turli axborot texnologiyalaridan, radio-televide niye, Internetning ijtimoiy tarmoqlari kabi vositalardan makkorlik bilan foydalanmoqdalar.

Misol tariqasida aytish joizki, global tarmoqning dunyo bo'yicha 3 milliarddan ziyod foydalanuvchilari bor. Uning safida millionlab qabih niyatlarini amalga oshirishda o'ziga o'lja qidirayotgan terror harakatlari vakillari, ekstremistik harakat tarafдорлари, narkotrafik xurujlarni keltirib chiqarayotgan guruhlar, dinlararo, millatlararo va davlatlararo nizolarni keltirib chiqarish orqali o'zlarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlab kelayotgan vatanfurushlar ham topiladi. Ularnig qo'lida har doim ham yovuzlik, johillik, qotillik kabi jinoyatlarni sodir etuvchi qurollar emas, balki undan ham qudratli bo'lgan instruktiv axborotlari manbayi mavjud. Bular - turli media mahsulotlar, videoroliklar, targ'ibot matnlari, foto mahsulotlar, soxta tahlillar ko'rinishidagi axborotlar hisoblanadi. Bu kabi manbalar shunday qudratga egaki, ular orqali insonning o'zi jinoyat quroliga aylanib qolishi mumkin [2:120].

Axborot urushida, eng birinchi navbatda psixologik qonuniyatlar inobatga olinadi, chunki uning asosiy mo‘ljali-inson ongidir. Informatsion tahdidlarni amalga oshirishda, avvalo, berilayotgan axborot ongni zaharlovchi yovuz kuchga aylanadi. Axborot - psixologik quroq bo‘lib, bu ayni paytda eng zamонавиy оmmавиy axborot vositalari, kompyuter o‘yinlari, Internet tizimi yordamida inson ongi orqали uning psixikasiga ta‘sir ko‘rsatishga qaratilgандir. Bunda boshqa bir ijtimoiy guruh manfaatlaridan qat’iy nazar, uni o‘ziga tobe qilish, o‘z qadriyatlariga ko‘ndirish, bo‘ysundirishga qaratilgan va uzoqni ko‘zlagan yashirin siyosat mujassam.

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlar ma‘naviyatiga tahdid solayotgan holatlар soni tobora ortmoqda. Oddiy qilib aytadigan bo‘lsak, birgina muhim aloqa vositasiga aylangan mobil telefonlardagi har xil pornografik film va rasmlar, mashhur shaxslar haqidagi “qiziqarli” ma‘lumotlar, zo‘ravonlik holatlari aks ettirilgan roliklarning o‘ziyoq yoshlar ma‘naviyatiga qaqshatqich zarba berishga va ularda yovuzlik hislarini uyg‘otishga qodir [4:329].

Internet tarmog‘idagi ish qidirish, do‘stlar topish, tanishuvlar esa aldash yo‘li bilan odam savdosining yanada rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Eng achinarlisi shuki, bu saytlar mamlakatimiz kelajagi bo‘lgan yoshlar e‘tiborini o‘ziga tortib, hayotiy tajribasi yo‘q yigit-qizlarni o‘z ortidan ergashib ketishiga olib kelmoqda. So‘nggi paytlarda Internet orqали tahdid etish yoki ilmiy tilda aytadigan bo‘lsak, grifing holatlari ko‘p kuzatilmoqda. Bu kabi tarmoq bezorilarining eng birinchi qurbanlari aynan yoshlar qatlamidir. Bir ko‘rishda beozor tuyulgan chat xonalar yoki maxsus muloqot dasturlari orqали kechadigan suhbatlar tafakkuri endi shakllanayotgan bolalarni ba‘zan jinoyatgacha yetaklab borayotgani hayotiy haqiqat.

Virtual sekta yoki grifing bilan shug‘ullanadiganlar yoxud grifyorlar zamонавиy yoshlarning qiziqishlaridan juda yaxshi xabardor bo‘lib, onlayn konferensiya, forum xonalarida istalgan mavzuda suhbat yuritishi, o‘zlarini ularning muammolarini tushunadigan odamlar sifatida ko‘rsatishi mumkin, buning ustiga, veb tarmoqda anonimlikni saqlash xususiyati qisqa fursat ichida ishonchga kirib olishga imkon yaratadi.

Demak, bundan ko‘rinadiki, insoniyat axborotdan foydalanish madaniyatiga ega bo‘lmas ekan, “dahshatli yolg‘onlar” izmidan chiqib keta olmaydi. Bugun Internet butun dunyoni egallab bo‘ldi. Uning ijobiy va salbiy jihatlarini tushunib olish dolzARB ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi dunyo aholisinig 2,1 milliardi Internet tizimidan foydalanmoqda. Shulardan 9 millionini O‘zbekiston fuqarolari tashkil etadi [5:2013]. Ma‘lumotlarga ko‘ra, Internet tarmoqlarida o‘z-o‘zini o‘ldirishga targ‘ib etuvchi-10 mingta (o‘z-o‘zini o‘ldirish bo‘yicha hozir G‘arb birinchi o‘rinni egallagan) [6].

Eng achinarlisi, inson ruhiyatiga shafqatsizlikni, diniy qarama qarshiliklarni, guruhvozlikni singdiruvchi kompyuter o‘yinlari orqali insonlarni boshqarish urfga aylanib ulgurdi. Bunday dasturchilarning maqsadi nima ekanligini, mazkur o‘yinlarni ko‘p o‘ynash orqali insonlar joniga, hatto o‘z joniga osongina qasd qilayotganlarni ko‘rib, anglash qiyin emas. MDHning qator mamlakatlari, xususan, Ukraina, Qozog‘iston, Rossiya Federatsiyasi va Qirg‘izistonda o‘smirlar o‘rtasida o‘z joniga suiqasd qilish hollari ko‘payib borayotgani kuzatilmoqda. Ularning bunday keskin qaror qilishlari va yosh umrlarini xazon qilishiga nima sabab bo‘lgan deb o‘ylaysiz?

O‘z joniga suiqasd qilgan o‘smirlarning bir nechtasining ijtimoiy tarmoqdagi sahifalari o‘rganib chiqilganda, ijtimoiy tarmoqlardagi “o‘lim guruhlari”ga a‘zo bo‘lgani, “suiqasd qilish” kitoblarini o‘qigani va voqeadan bir necha soat avval guruh tomonidan o‘z joniga suiqasd qilish topshirig‘i berilganligi aniqlangan.

Ta‘kidlash lozimki, bugungi kunda turli guruhlar o‘z g‘arazli niyatlarini amalga oshirishda Internetdan samarali foydalanmoqda. Jumladan, terrorchi harakatlar umumiyligi faoliyatining 90 foizi Internet hamda axborot texnologiyalari bilan bevosita bog‘liq [2:121]. Guruhga jalb qiluvchi da‘vatlar, harakatga oid videoroliklar, fotojarayonlar turli veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatiladi.

Respublikamiz bo‘yicha Internetdan foydalanuvchilarning qariyb 90 foizi tarmoqqa mobil telefonlar yordamida ulanmoqda. Bevosita tahlillarga tayanadigan bo‘lsak, Internetdagি ekstremistik harakatlarga qo‘silib

qolayotganlarning aksariyati yoshlar va ayollar ekanligi aniqlangan. Shuningdek, ularning safida o‘ziga to‘q, namunali oilalarining farzandlari ham borligi bizni yanada ogoh bo‘lishga, yon-atrofimizga befarq bo‘lmaslikni talab qiladi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda informatsion tahdidlarga qarshi kurashishda “Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorligidan samarali foydalanish zaruriyati kundalik kechiktirib bo‘lmas vazifaga aylanganini davrning o‘zi taqozo qilmoqda. Bu yo‘nalishda respublikamizda ijtimoiy sherikchilik - o‘zaro hamkorlik samaradarligini oshirish omili sifatida yo‘lga qo‘yilsa, maqsadga muvofiq. Aynan “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasida joylarda “axborot, maslahat, tashkiliy va o‘quv-uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash” masalalari belgilab berilgan [7]. Bunda yagona maqsad - atrofida birlashish mexanizmi, ya‘ni oila, mahalla va ta‘lim muassasasi o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘ysa, tizimli maqsadlar ijobiy hal etiladi.

Muxtasar qilib aytganda, zamonaviy Internetga haqiqat manbayi emas, balki axborot olish imkoniyati sifatida qarashimiz lozim. Internet orqali tarqatilayotgan axborotning chinini yolg‘onidan ajratib olish uchun mustaqil fikrlash talab etiladi. Mustaqil fikrlash, mafkuraviy immunitet, yuksak ma‘naviyat g‘oyaviy va informatsion tahdidlarga qarshi kurashning bosh omilidir. Yuqorida sanab o‘tilayotgan ma‘naviy tahdidlarga qarshi kurash uchun o‘sib kelayotgan yosh avlod qalbida yuksak ma‘naviyatni shakllantirish globallashuv davrining eng muhim talablaridan biri ekanligini doimo yodda tutishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳасанбоев Ў. Ўзбекистонда давлат ва дин муносабатлари: диний ташкилотлар, оқимлар, мафкуравий курашнинг долзарб йўналишлари. Тошкент.: “Тошкент ислом университети” НМБ, 2014.
2. “Xalq ta’limi” jurnali. Toshkent. 2017 yil №5-soni. .
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasida so‘zlagan nutqini o‘rganish va keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib qilish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. Toshkent: “MA ‘NAVIYAT”, 2021.

4. Islom Karimov asarlarida mamlakatimiz yoshlari hayotiy pozitysiyasini shakllantirish va ta‘lim-tarbiya masalalari. // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2017 yil 26 may. Toshkent: “YANGI NASHR”, 2017.
5. Юксак маънавият ва қонун устуворлиги асосида яшаш, эл-юрга садоқат, адолат, ҳалоллик ва жасорат фазилатларини камол топтириш. Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2013.
6. “Xalq ta‘limi” jurnali. Toshkent. 2017 yil №5-soni.
7. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. Тошкент: 2015.
8. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А.Каримовнинг “Тарихий хотира ва инсон омили-буюк келажагимизнинг гаровидир” рисоласини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. Тошкент: “ЎҚИТУВЧИ” НМИУ, 2012.